

QOR MALIKASI

BIRINCHI VOQEA

Ko'zgu va uning parchalari haqida

Ya`ni, boshladik! Hikoyamizning oxirigacha yetib borsak, hozirgidan ko'proq narsalarni bilib olamiz. Xullas, bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir yovuz jodugar o'tgan ekan, yovuzlikda iblisdan ham o'tib ketgan ekan. Bir kuni u kayfi judayam chog'ligida shunaqangi bir ko'zgu yasaptiki, bu ko'zguda barcha yaxshi, go'zal narsalar juda kichrayib qolar, hamma yomon, xunuk narsalar esa kattarib, yanada jirkanchroq bo`lib ko'rinar ekan. Ajoyib gul-u gulzorlar xuddi suvda pishgan ismaloqqa o'xshab qolar, eng yaxshi odamlar esa mayib-majruh bo'lib ko'rinar, oyoqlari osmondan kelib qolar, qorinlari esa umuman yo'q bo'lib ketar ekan! Yuzlari tanib bo'lmas qiyofaga kirar, kimningdir betida jinday sepkilli bo'lsa, ishonaverinki, bu sepkillar uning burni-yu lablarini ham qoplab olar ekan. Agar birovning xayoliga yaxshi fikr kelib qolsa, bu fikr ko'zguda shu qadar buralib-chirmalib ko'rinar ekanki, jodugar o'zi topgan bu ermakdan dumalab-dumalab kular ekan.

Jodugarning o'z maktabi bo'lib, uning shogirdlari odamlarga mo'jiza ro'y berganligi haqida hikoya qilishibdi: endilikda butun dunyo va odamlarni o'z haqiqiy qiyofasida ko'rish mumkin bo'ldi, deyishibdi ular. Shogirdlar bu ko'zguni olib har tomonga yugurishibdi, ko'p o'tmay bu ko'zguda qiyshayib ko'rinmagan na bironta mamlakat qolibdi, na bironta odam.

Oxiri ular osmonga ham chiqmoqchi bo'lishibdi. Qanchalik baland ko'tarilishsa, ko'zgu ham shunchalik qiyshayib boraveribdi, hatto uni qo'lda tutish ham qiyin bo'lib qolibdi. Ular juda-juda yuksakka chiqqanlarida o'ta qiyshayib ketgan ko'zgu qo'llaridan otilib chiqib ketibdi va yerga uchib tushib chil-chil sinibdi-da, million-million bo'laklarga parchalanib ketibdi, bu esa yanada ko'proq kulfatlarga sabab bo'libdi. Ko'zguning xuddi qum zarrachasidek mayda ba'zi bir bo'laklari butun dunyo bo'ylab uchib yurar ekan, ayrim kishilarning ko'ziga tushganicha qolib ketibdi. Ko'ziga bunday ko'zgu zarrachasi kirib qolgan odamga hamma narsa teskari, hamma narsa yomon bo'lib ko'rinar, chunki har bir zarracha o'sha ko'zguning barcha xususiyatlarini saqlab qolgan ekan. Bu bo'laklar ba'zi kishilarning yuragiga kirib boribdi. Bu hammasidan ham dahshatlisi ekan. Chunki oqibatda o'sha kishilarning yuragi bir parcha muzga aylanib qolar ekan. Bu bo'laklarning ichida kattakonlari ham bo'lib, ularni derazalar ko'ziga qo'yishibdi. Bunday derazadan o'z yaqin do'stingni tomosha qilmaganing yaxshi ekan! Nihoyat, yana shunday bo'laklar bor ekanki, ulardan ko'zoynak yasashibdi. Yaxshiroq ko'rish, narsalarning farqiga borish uchun bunday ko'zoynak taqishdan yomoni yo'q ekan.

Yovuz jodugar bu ermakdan shunchalik xursand bo'libdiki, ichagi uzilgudek miriqib kulibdi. Yana ko'plab bo'laklar esa dunyo bo'ylab uchib ketibdi. O'shalar haqida eshitaylik-chi!

Ikkinchi voqea

Bolakay va qizcha

Bir kattakon shaharda imorat va odamlar shunchalik ko'p ekanki, kichkina bir bog'cha qilish uchun joy hammaga ham yetavermas, shuning uchun ko'pchilik kishilar tuvakka xonaki gul o'stinib, shundan bahra olishar ekan. Shu shaharda ikki kambag'al bola yashar, ularning bog'chalari tuvakli bog'chadan sal kattaroq ekan. Ular aka-singil bo'lishmasa-da, bir-birlarini aka-singildek yaxshi ko'rishar ekan.

Ularning ota-onalari yonma-yon kulbalarda yashashar ekan. Kulbalarning tomi tutashib ketgan bo'lib, ikki o'rtada uzun tarnov bor ekan. Har ikkala kulba bolaxonasining derazalari ham ana shu tarnov yonida bir-biriga ro'para turar, tarnovdan sakrasang bo'ldi, narigi derazaga borib qolar ekansan.

Har ikki bolaning ota-onasida ham kattakon yog'och quti bo'lib, bu qutilarda har xil oshko'klar va bir butadan kichikroq, tarvaqaylab o'sgan atirgul bor ekan. Ota-onalar xayoliga bu qutilarni tarnovga ko'ndalang qilib qo'yish fikri kelib qolibdi, chunki ana shunda u derazadan bu derazagacha cho'zilgan ikki jo'yak gulzor hosil bo'lar ekan-da! No'xatlarning yam-yashil barg-u rovaklari qutidan osilib tushibdi, atirgul butalari derazadan ichkariga nigoh tashlaganicha shoxlari bir-biriga chirmashib ketibdi. Ota-onalar bolakay va qizchaning tomdan bir-birinikiga mehmonga borishlari, atirgullar ostidagi o'rindiqlarda o'tirishlari uchun ruxsat berishibdi. Ular bu yerda maza qilib o'ynashar ekan.

Qishda bu shodliklar barham topibdi. Derazalarni ko'pincha muz qoplab olar, biroq bolalar pechkada mis chaqalarni qizdirib. muzlab qolgan deraza oynasiga bosishar, u yerda darhol dum-dumaloq doiracha paydo bo'lar, bu doirachadan xursand, yoqimtoy ko'zlar tashqariga moralay boshlar — har biri o'z derazasidan boqayotgan bu bolakay va qizcha — Kay bilan Gerda ekan. Yozda-ku ular bir sakrab bir-birinikiga mehmonga borsa bo'lar ekan, qishda esa buning uchun uzundan uzoq zinapoyalarni bosib pastga tushish, keyin esa yana shuncha tepaga ko'tarilish kerak ekan. Hovlida esa qor uchqunlari g'ujg'on o'ynar ekan.

— Bu oq asalarilar galasi! — debdi keksayib qolgan buvi.

— Ularning ham malikasi bormi? — deb so'rabdi bolakay. U haqiqiy asalarilarning malikasi bo'lishini bilar ekan-da!

Bor! — debdi buvi. — Qor uchqunlari uni g'uj qurshab olishadi, malika esa ularning hammasidan katta va hech qachon yerga qo'nmaydi, doim uni qora bulut ko'tarib yuradi. Ko'pincha kechalari u shahar ko'chalaridan yuradi. Kunlarning birida Kay bilan Gerda hayvon va qushlarning rasmi solingan kitobchani tomosha qilib o'tirishar ekan, kattakon minoradagi soat beshga zang uribdi.

— Voy! — deya qichqirib yuboribdi Kay. — Yuragimga tig' sanchilgandek bo'ldi, ko'zimga ham nimadir tushdi!

Qizcha uning bo'ynidan quchibdi, bolakay ko'zlarini pirpiratib ko'ribdi, biroq ko'zlarining ichida go'yo hech narsa yo'qdek ekan.

-Chiqib ketgan bo'lsa kerak, — debdi bolakay.

Biroq aslida Sunday emas ekan. Bu o'sha biz hikoyamizning boshida aytgan la'nati ko'zguning

zarralari ekan. Sho`rlik Kay! Endi uning yuragi bir parcha muzga aylanib qolar ekan. Og'riq o'tib ketgan bo'lsa-da, biroq ko'zgu parchasi ichkarida qolgan ekan.

—Nega yig'layapsan? — deb so'rabdi u Gerdadan.

Mening hech joyim og'rimayapti! Vuy, sen buncha ham xunuksan! — deya qichqirib yuboribdi u. — Anavi atirgulni qurt kemiryapti. Hamma shoxlari qing'ir-qiyshiq. Bunchayam xunuk bu atirgullar! Ular dikkayib turganidan qutilarning bo'sh turgani yaxshi.

U qutini tepib yuboribdi va har ikki atirgulni sug'urib tashlabdi.

-Nima qilyapsan axir, Kay! — deya qichqirib yuboribdi Gerda, bolakay esa qizchani qo'rqib ketganini ko'rib, yana bitta gulni yulib tashlabdi va ko'hlikkina jajji Gerdadan qochib o'z derazasi tomonga o'tib olibdi.

Endilikda Gerda unga suratli kitoblar olib keladigan bo'lsa, bolakay, bu suratlariga faqat chaqaloqlar qiziqishi mumkin, der, keksa buvisi biron narsani hikoya qilib bersa, u bundan ayb izlar ekan. Ba'zan esa shunchalik borib yetar ekanki, buvisining yurishini masxara qila boshlar, uning ko'zoynagini taqib olar, buvisiga taqlid qilib gapirishga tushib ketar ekan. Juda o'xshasa kerakki, odamlar kulishar ekan. Tez orada Kay barcha qo'shnilarga tegajog'lik qilishga o'tibdi. Bolakay ularning barcha g'alati jihatlarini, kamchiliklarini aynan o'xshatib ko'rsata olar, kishilar esa:

—Judayam qobiliyatli bolakay! — der ekanlar. Bularning barchasiga sabab bolakayning ko'zi bilan yuragiga tushgan ko'zgu parchalari ekan. Shuning uchun u hatto ko'hlikkina jajji Gerdani ham masxara qilar, holbuki, qizcha uni astoydil yaxshi ko'rar ekan.

Uning ermaklari ham butunlay boshqacha, ajabtovur, g'alati bo'lib qolibdi. Bir kuni qish payti qor yoqqanida u narsalarni yirik qilib ko'rsatadigan kattakon shisha olib kelibdi, ko'k kamzulini polga to'shab, ustiga qor qo'yibdi-da:

—Manavi shishaga qara, Gerda, — debdi.

Shisha ostidagi qor uchqunlari aslidagidan judayam katta bo'lib, chiroyli gulga yoki o'n qirrali yulduzga o'xshab ketar ekan. Shunaqangi go'zal ekanki!

—Qara, qanday ustomonlik bilan qilingan, — debdi Kay. — Rostakam gullardan ko'ra bu qiziqroq! Qanchalar aniq ishlangan. Bittayam noto'g'ri chizig'i yo'q. Eh, qani endi ular erib ketmaganida edi!

Oradan biroz o'tgach, Kay kattakon qo'lqop kiyganicha chana sudrab kelibdi va Gerdaning quloqlariga: «Menga katta maydonda bolalar bilan o'ynash uchun ruxsat berishdi!» — deb qichqirganicha chopib ketibdi.

Maydonda juda ko'p bolalar chana uchishar ekan. Kim dadilroq bo'lsa, o'z chanasini dehqonlar chanasiga bog'lab olar va uzoq-uzoqlarga sirpanib ketar ekan. Bu esa nihoyatda maza ekan. O'yin-kulgi ayni avjiga chiqqanida maydonda kattakon oppoq chana paydo bo'libdi. Unda oq po'stinga o'rangan, xuddi shunday qalpoq kiyib olgan kimdir o'tirar ekan. Chana maydonni ikki bora aylanib chiqibdi. Kay darhol o'z chanasini unga bog'lab olganicha sirg'ala boshlabdi. Katta chana tezlasha-tezlasha maydondan muyulishga qarab burilibdi. Unda o'tirgan kishi ortiga o'girilibdi-da, xuddi eski tanishlarga o'xshab Kayga

salom degandek bosh irg'ab qo'yibdi. Kay bir necha bor o'z chanasini yechib olmoqchi bo'libdi, biroq po'stinli kishi har safar unga bosh silkib qo'yar ekan; bolakay ham uning ortidan ketaveribdi.

Mana, ular shahar darvozasidan ham chiqib olishibdi. Qo'qqisdan laylakqor yog'a boshlabdi. Tevarak-atrof ko'zni yirtib yuborgudek qorong'i bo'lib qolibdi. Bolakay shosha-pisha katta chanaga bog'langan arqonni qo'yib yuboribdi, biroq chanasi katta chanaga yopishib qolgandek uning ortidan bo'ronday yelib ketaveribdi. Kay qattiq dodlab yuboribdi, ammo buni hech kim eshitmabdi. Qor gupillatib yog'ar, chanalar esa qor tepalarga sho'ng'ib, g'ovlar-u ariq-zovurlar ustidan sakrab o'tganicha ilgarilab borar, Kay esa dag'-dag' titrar ekan.

Lo'ppi-lo'ppi qorlar kattalasha-kattalasha nihoyat ulkan oppoq tovuqlarga aylanibdi. Qo'qqisdan b_u tovuqlar har tomonga uchib ketishibdi. Katta chana to'xtab, unda o'tirgan kishi o'rnidan turibdi. Baland bo'yli, adl qomatli, ko'zni qamashtirgudek oppoq bu ayol — Qor malikasi ekan. Uning po'stini ham, qalpog'i ham qordan ekan.

—Zo'r yelib keldik! — debdi u. — Lekin sen qattiq sovqotib qolding, kel, mening po'stinimga o'ranib ola qol!

U bolakayni o'z chanasiga o'tqazib, ayiq terisidan qilingan po'stiniga o'rabdi. Kay xuddi qor uyumiga tushib ketgandek bo'libdi.

—Haliyam sovqotyapsanmi? — deb so'rabdi Malika va bolakayning peshanasidan o'pib qo'yibdi.

Hu-uv! Uning bo'sasi muzdan ham sovuq ekan, bu sovuq bolakayning ich-ichini teshib, yuragigacha yetib boribdi, yuragining esa shundoq ham yarmi muzlab yotgan ekan. Birpasdan keyin butunlay o'lib qolsam kerak, deb o'ylabdi Kay...

Atigi bir daqiqa o'tgach, aksincha, u o'zini juda yaxshi his eta boshlabdi, hatto butunlay sovqotmay qo'yibdi.

—Mening chanam! Mening chanamni unutma, — deya birdan eslab qolibdi bolakay.

Uning chanasini oq tovuqlardan birining ortiga bog'lashibdi va u ham katta chana orqasidan uchib ketibdi. Qor malikasi Kayni yana bir marta o'pgan ekan, u Gerdani ham, buvisini ham, uyidagi hamma narsalarni ham eslamay qo'yibdi.

—Endi seni o'pmayman, — debdi Qor malikasi.

—O'lguncha o'pavermayman-ku, axir.

Kay unga nazar tashlabdi. U judayam latofatli ekan. Bunday dono qiyofa, go'zal chehrani u tasavvur ham qilmagan ekan. Bolakayga u endi hu avvalgi deraza oldida o'tirganida qo'li bilan imo qilgani kabi sovuq bo'lib tuyulmabdi.

U malikadan butunlay qo'rqmay qo'yibdi, o'zining arifmetikadan to'rt amalni, hatto kasr sonlarni ham yecha olishini, har bir mamlakatning yer maydoni va aholisi qancha ekanligini bilishini aytib bergan ekan, malika javob o'rniga jilmayib qo'ya qolibdi. Ana shunda bolakayga aslida o'zi juda kam narsa biladigandek tuyulib ketibdi.

Xuddi shu lahzada Qor malikasi u bilan qop-qora bulutga ko'tarilibdi. Bo'ron xuddi qadimiy qo'shiqlari kuylagandek ingrar va faryod chekar ekan; ular o'rmon va ko'llar ustidan, dengiz va cho'llar tepasidan uchib o'tishibdi: ularning ostida izg'irinlar izg'ir, bo'rilar uvillar, qorlar tovlanib yotar, qop-qora qarg'alar qag'illab uchishar, boshlari ustida esa kattakon tiniq oy yog'du sohib turar ekan. Qishning uzundan uzoq bu kechasida Kay oydan ko'z uzmay chiqibdi, kunduzi esa Qor malikasining poyida uxlab qolibdi.

UCHINCHI VOQEA

Sehrgarlik qila oladigan ayol gulzori

Kay qaytib kelmaganidan so'ng Gerdaning holi ne kechdi? Kay qayoqqa g'oyib bo'ldi? Buni hech kim bilmas, hech kim aytib bera olmas ekan.

Bolalar faqat Kay o'z chanasini kattakon g'aroyib chanaga bog'laganini, keyin muyulishdan burilib, shahar darvozasidan chiqib ketganini ko'rganliklari haqida hikoya qilishar ekan xolos.

Uni deb ko'p ko'z yoshlar to'kilibdi. Gerda uzoq va achchiq-achchiq yig'labdi. Nihoyat, Kay o'tgan shahar yonidan oqib o'tadigan daryoga cho'kib ketgan degan xulosaga kelishibdi. Zimiston qish kunlari juda uzoq cho'zilibdi.

Nihoyat, mana bahor ham kelib, quyosh jamol ochibdi.

— Kay o'lgan, endi u hech qachon qaytib kelmaydi! — debdi Gerda.

— Ishonmayman! — deb javob beribdi quyosh shu'lasi.

— U o'lgan, endi hech qachon qaytib kelmaydi! — deya takrorlabdi Gerda qaldirg'ochlarga.

— Ishonmaymiz! — deya javob qaytarishibdi ular.

Oxiri Gerdaning o'zi ham bunga ishonmay qo'yibdi.

— O'zimning qizil boshmoqchalarimni kiyaman-da (Kay hali bu boshmoqchalarni biror marta ham ko'rmagan ekan). — debdi u bir kuni ertalab, — Kayni borib daryodan so'rayman.

Hali juda vaqtli ekan. U uxlab yotgan buvisini o'pib qo'yib, qizil boshmoqchalarini kiyibdi-da, yolg'iz o'zi to'ppa-to'g'ri shahar tashqarisidagi daryoga qarab yuguribdi.

— Mening tutingan akamni o'z bag'ringga olganing rostmi? — deb so'rabdi u daryodan. — Sen agar uni menga qaytarsang, senga o'zimning qizil boshmoqchalarimni sovg'a qilardim!

To'lqinlarning g'alati bosh tebratishlari qizchaga qiziq tuyulibdi. Shunda u o'z bisotidagi eng qimmatli qizil boshmoqchalarini yechibdi-da, daryoga irg'itibdi. Lekin boshmoqchalar shundoq qirg'oqqa borib tushibdi. To'lqinlar esa, uni darhol qizchaga qaytarishibdi — go'yo daryo Kayni qaytarib berolmagani kabi, qizchaning bisotidagi eng qimmatli narsani olishni ham istamayotgandek ekan. Boshmoqchalarni unchalik uzoqqa ota olmadim shekilli, deb o'ylabdi qizcha va qamishzorda lopillab turgan qayiqqa chiqib, uning quyrug'iga boribdi-da, boshmoqchalarini yana suvga otibdi. Qayiq bog'lab qo'yilmagan ekan. qizchaning tebranishi sababli u qirg'oqdan uzoqlasha boshlabdi. Qizcha darhol qirg'oqqa sakramoqchi bo'libdi, biroq to qayiqning quyrug'idan tumshug'iga yetib kelaman degunicha u qirg'oqdan

ancha uzoqlashib, oqimga qo'shilib suzib ketibdi.

Qattiq qo'rqib ketgan Gerda qichqirib yig'lashga tushibdi, biroq uni qarg'alardan boshqa hech kim eshitmabdi. Qarg'alar esa uni quruqlikka olib chiqa olmaydilar-ku, shuning uchun uning ortidan qirg'oq bo'ylab uchganlaricha, go'yo qizchaga taskin bermoqchi bo'lgandek:

—Biz bormiz! Biz bormiz! — deya qag'illashibdi.

Qayiq tobora uzoqlashib ketaveribdi. Gerda oyoqlarida paypog'i bilan qotganicha o'tiraveribdi: uning qizil boshmoqchalari kema ortidan oqib kelar, biroq unga sira yeta olmas ekan.

«Ehtimol, daryo meni Kayning yoniga boshlab borar?» — deb o'ylabdi. Gerda xursandligidan o'rnidan turib ketib, chiroyli yam-yashil qirg'oqlarga uzoq-uzoq suqlanib boqibdi.

Nogoh u kattakon olchazor bog'ga suzib kelibdi, unda tomi poxoldan qilingan, derazalariga qizil va ko'k oynalar o'rnatilgan bir uycha bor ekan. Eshik oldida ikki yog'och askar turgan bo'lib, ular shu yaqindan suzib o'tadigan barchaga askarchasiga salom berishar ekan. Gerda askarlarni tirik deb o'ylab, ularga qarab qichqiribdi, ammo tabiiyki ular javob berishmabdi. Qizcha ularga yanada yaqinroq suzib boribdi, qayiq shundoq qirg'oqqa yetay deb qolibdi, qizcha esa yanada qattiqroq qichqiribdi. Uychadan ilgak hassa tutib olgan ajoyib gullar chizilgan poxol shlyapali qarishib burishib ketgan bir kampir chiqib kelibdi.

—Voy sho'rlik bolaginam! — debdi kampir. — Sen qanday qilib bunaqangi kattakon asov daryoga tushib qolding, qanaqa qilib bu qadar uzoq joylarga kelib qolding? Kampir shunday deb javraganicha suvga tushib, ilgak hassasini qayiqqa qadab, qirg'oqqa tortib chiqibdi va Gerdani yerga tushiribdi.

Gerda bu notanish kampirdan jinday cho'chinqirab tursa-da, lekin quruqlikka chiqib olganidan juda-juda xursand ekan.

—Qani yur-debdi kampir. —Xo'sh, qani ayt-chi, o'zing kimsan, bu joylarga qanday kelib qolding?

Gerda hamma-hammasini hikoya qilib beribdi, kampir esa bosh silkitganicha «Hmm! Hmm!» deya tinglab o'tiribdi. Qizcha hikoyasini tugatgach, kampirdan siz Kayni ko'rma dingizmi, deb so'rabdi. Kampir yo'q u hali bu yerdan o'tgani yo'q, lekin albatta o'tadi. Shuning uchun bckorga kuyinma, yaxshisi sen olchalardan totib ko'r. Bog'da o'sib yotgan gullardan bahra ol. Bu gullar har qanday suratli kitobchadan ham yaxshiroq, ularning barchasi crtak aytishni biladi debdi. Shunday deya kampir Gerdaning qo'lidan tutib uychasiga boshlab kiribdi va eshikni qulflab qo'yibdi.

Ko'zlariga turli-tuman — qizil, ko'k va sariq oynalar solingan deraza poldan ancha balandda joylashgan ekan; undan tushayotgan ana shu g'aroyib kamalaksimon shu'-lalar xonani charog'on qilib turar ekan. Stolda ajoyib olchalar solingan savat bo'lib, Gerda bu olchalardan xohlaganicha yeyishi mumkin ekan. Qizcha tamaddi qilar ekan, kampir uning sochlarini tilla taroq bilan tarab o'tiribdi. Jingalak sochlar zar shu'lalar sochib, qizchanning mayin, ochiq, atirgul kabi kulcha yuzchalarini qoplab olibdi.

— Ko'pdan beri shunday yoqimtoy qizchani orzu qilar edim! — debdi kampir. — Hali ko'rasan, sen bilan ahil yashab ketamiz.

Shunday deya u qizchani jingalak sochlarini tarashda davom etibdi, qanchalik ko'p tarasa, Gerda ham o'z tutingan akasi Kayni shuncha tez unuta boshlabdi — chunki kampir sehrgarlikni bilar ekan. Faqat u yovuz sehrgar bo'lmay, ko'ngil xushligi uchun ahyonda bir sehrgarlik qilib qo'yar ekan, hozir esa Gerda o'zinikida qolishini juda-juda istab qolgan ekan. Nihoyat, u bog'ga chiqib, ilgak hassasini barcha atirgul butalariga bir-bir tekkizgan ekan, ayni gullab turgan bu atirgul butalari yer qa'riga kirib ketibdi. Hech biridan asar ham qolmabdi. Kampir, agar Gerda bu atirgullarni ko'rib qolsa, o'z yaqinlarini shu jumladan, Kayni eslab qolishi va natijada qochib ketishidan cho'chir ekan.

Shundan so'ng kampir Gerdani gulzorga boshlab kelibdi. Bu gulzor naqadar xushbo'y, naqadar husunkor yilning xohlagan faslida turli-tuman gullar ochilib yotar ekan! Butun dunyoda bu gulzordan ko'ra ham rang-barangroq.

Gerda shodlikdan sakrab kctibdi va to quyosh baland-baland olcha daraxtlari ortiga botib ketguncha gullar orasida o'ynab yuraveribdi. So'ng uni qizil ipak patlardan to'qilgan, havorang binafshalar qadalgan ajoyib to'shakka yotqizishibdi. U uxlab qolib shunaqangi g'aroyib tushlar ko'ribdiki, bunaqasini malikalar o'z to'y kunlarida ham ko'rishmas ekan.

Ertasi kuni kampir yana Gerdaga quyosh charaqlab turgan gulzorda o'ynash uchun izn bcribdi. Ana shu zaylda bir necha kunlar o'tibdi. Gerda endilikda bog'dagi har bir gulni yoddan bilar, biroq bu gullar qanchalik ko'p bo'lmasin. qizchaga bari bir yana qandaydir bir gul yetishmayotgandek tuyulaverar ekan, lekin u qanaqangi gul? Bir kuni u kampirning gullar rasmi chizlgan somon shlyapasini tomosha qilib o'tirganida ular orasidagi eng go'zal gul atirgul rasmini ko'rib qolibdi. Kampir tirik atirgullarni yer qa'riga kiritib yuborganida, shlyapasidan gulning rasmini ham o'chirib tashlashni unutib qo'ygan ekan. Mana parishonxotirlikning oqibati!

—Voy! Bu yerda atirgul yo'qmi? — debdi Gerda va darhol chopqillab bog'ga chiqibdi, lekin qanchalik axtarmasin, birorta ham atirgul topa olmabdi. Shunda u yerga o'tirib olganicha rosa yig'labdi. Uning iliq ko'z yoshlari ilgari atirgul butasi o'sib turgan joyga to'kilaveribdi, to'kilaveribdi, bu yer ko'z yoshlaridan namlangach, xuddi avvalgidek gullab turgan atirgul lo'p etib o'sib chiqibdi.

Gerda uni qo'llariga chirmab olib o'pa boshlagan ekan hamki, o'z uyidagi ajoyib atirgullar, ular bilan birga Kay ham esiga tushib kctibdi.

— Nega men buncha hayallab qoldim ckan-a! — debdi qizcha. — Axir Kayni izlab topishim kerak edi-ku!.. Uni sizlar bilmaysizlarmi? — deb so'rabdi u atirgullardan. — Uning o'lganligi, endi hech qachon qaytib kelmasligi rostmi?

U o'lgani yo'q! — deb javob beribdi atirgullar. — Biz axir barcha o'liklar yotadigan yer ostida bo'ldik. ammo ular orasida Kay yo'q edi.

—Rahmat sizlarga! — deya Gerda boshqa gullar yoniga borib, ulaming kosachalariga tikilganicha so'rabdi: — Kayning qayerdaligini sizlar bilasizlarmi?

Lekin har bir gul quyosh taftida isinganicha o'z ertagi yoki boshidan kechirganlarini o'ylash bilan

mashg'ul ekan. Gerda ulardan ko'p narsalar eshitibdi. biroq birontasi ham Kay haqida hech so'z aytmabdi.

Shunda Gerda yaltirab yotgan yam-yashil yaproqlar orasidan nur taratib turgan qoqigul oldiga boribdi. —Hoy jajjigina porloq quyoshcha! — debdi unga Gerda.

— Tutingan akamni qayerdan izlashim kerakligini sen aytib berolmaysanmi?

Qoqigul yanada yashnab ketib qizchaga boqibdi. Unga shunaqangi ajoyib qo'shiqlar kuylab beribdiki! Attang! Bu qo'shiqlarning birortasida ham Kay haqida hech gap yo'q ekan!

Bahorning ilk kuni edi, quyosh kichkina bir hovlichani qizdirib, charog'on etib yubordi. Uning shu'lalari qo'shni uyning oppoq devorlariga sochildi, devorning shundoq yonginasida dastlabki sap-sariq gul jamol ochdi, u quyosh nurlarida tilladek tovlanar edi. Keksa buvi o'tirish uchun hovliga chiqib keldi. Mana. uning nabirasi, kambag'al xizmatkor qiz mehmondan qaytdi va buvisini o'pib qo'ydi. Qizlarning o'pichi tilladan qimmat — chunki u to'g'ri yurakdan chiqib keladi. Bu qizning lablari tilladan. yuragi tilladan, tong mahalidagi osmon ham tilladan! Mana shu, xolos! — debdi qoqigul.

—Sho'rlik buviginam! — deya xo'rsinibdi Gerda. — Rostdan-da u xuddi Kayga kuyingani kabi men uchun ham kuyinib yotgandir. Biroq men yaqin orada Kayni olib qaytaman. Endi gullardan hech narsa so'ramaslik kerak — bundan foyda yo'q. ular faqat o'z bilganini qaytaraveradi,—deya u bog' etagiga qarab yuguribdi.

Eshik yopiq ekan, biroq Gerda uning zanglab ketgan zulfinini shunchalik uzoq silkitibdiki. axiri u dosh berolmay ochilib ketibdi va qizcha shu alfozda, yalangoyoqligicha yo'l bo'ylab qocha boshlabdi. U uch bora ortiga o'girilib qarabdi, lekin hech kim uni quvlab kelmayotgan ekan. Nihoyat, u charchab, bir tosh ustiga o'tirganicha atrofga razm solibdi: yoz o'tib bo'lgan, kech kuz tushib qolgan ekan. Faqat kampirning quyosh hamisha charaqlab turadigan. to'rt faslda ham gullar ochilib yotadigan mo'jizaviy bog'ida vaqt o'tgani sezilmagan ekan.

—Yo xudoyim! Men naqadar hayallab qoldim! Allaqachon kuz tushib qolibdi-ku! Hozir dam olishning payti emas! — deya Gerda yana yo'lga tushibdi.

Eh, uning toliqqan sho'rlik oyoqchalari qanchalar zirqirab og'ribdi. Atrof esa rutubatli, sovuq! Tollarning uzur yaproqlari sap-sariq tusga kirgan, yirik tuman tomchilar; bu yaproqlar yuziga qo'nib, ularni yerga uzib tushirar hamma joyni xazon qoplab yotar ekan. Faqatgina nordoa taxir mevalari g'uj-g'uj tog'olcha qaqqayib turar ekan Naqadar xira, naqadar qayg'uli ekan bu dunyo!

TORTINCHI VOQEA

Shahzoda va malika

Gerdaning yana bir bor nafas rostdash uchun o'tirishig to'g'ri kelibdi. Uning shundoq qarshisida qor uzra kattakon bir qarg'a hakkalab yurar ekan. Boshini tebratganicha qizchaga uzoq qarab turibdi va nihoyat tilga kiribdi:

—Qar-qar! Durrustmisan!

U insonlarcha tiniq gapira olmasa-da, biroq qizchaga yaxshilik qilishni istayotgan ekan, shuning uchun

han undan bu yorug' dunyoda nima sababdan yakka-yu yolg'iz sarson-sargardon bo'lib yurganligini so'rabdi. «Yakka-yu yolg'iz» degani nima ekanligini Gerda juda yaxshi bilar lekin bu o'zining boshiga tushmagan ekan. Qizcha qarg'ag o'zining butun hayotini gapirib beribdi va undan Kayni ko'rgan-ko'rmaganligini so'rabdi.

Qarg'a boshini o'ychan likillatib turibdi va:

— Mumkin! Ko'rgan bo'lishim mumkin! — debdi.

— Nahotki! Rostdanmi? — deya qichqirib yuboribdi

qizcha va qarg'ani shunaqangi qattiq o'pibdiki. uning dami qaytib o'lishiga bir bahya qolibdi.

— Sekin-roq, sekin-roq! — debdi qarg'a. — O'ylashimcha, o'sha bola sening Kaying edi. Lekin endilikda, menimcha, o'z malikasi bilan bo'lib ketib, seni unutib yuborgan!

— Nahotki u malikanikida yashasa? — deb so'rabdi Gerda.

— Endi quloq sol, — debdi qarg'a. — Faqat sizlarning tilingizda so'zlash men uchun juda qiyin. Bordi-yu sen qarg'alar tilini tushunganingda edi. men senga hammasini boplab gapirib bergan bo'lardim.

— Yo'q, menga buni o'rgatishmagan, — debdi Gerda.

— Attang!

— Hechqisi yo'q, — debdi qarg'a. — Yomon bo'lsa ham, qo'limdan kelganicha gapirib beraman.

Va u bilganlarining hammasini so'zlab beribdi.

— Sen bilan biz turgan mana shu qirollikda shunday aqlli bir malika borki. ta'rifiga til o'z! U dunyodagi barcha gazetalarni o'qib chiqdi va o'qiganlarining hammasini esdan chiqarib yubordi — ko'rdingmi u naqadar aqlli! Kunlarning birida u taxtga o'tirib olib — odamlar aytganidek, taxtning holvasidan g'alvasi ko'p — qo'shiq ayta boshladi: «Erga chiqsam bo'lmasmikan-o!» «Rostdanam-a!» — deya o'yladi u va erga tegishni istab qoldi. Biroq u shundoq kuyov tanlamoqchi bo'ldiki. u bilan gaplashganingda javob bera olsin, boshqalarga o'xshab gerdayib turmasin — bu juda zerikarlida, axir. Shunday qilib, nog'ora chalganlaricha saroydagi barcha xonimlarni yig'ib, ularga malikaning xohishini ma'lum qilishibdi. Ular shu qadar sevinib ketishibdiki, asti qo'yaverasiz! «Mana bu bizning ko'nglimizdan bo'ldi! — deyishibdi ular. — O'zimiz ham yaqinda shu haqda o'ylab qo'ygan edik!» - Bu gaplarimning hamma-hammasi rost! — deya qo'shib qo'yibdi qarg'a. — Saroyda mening qaylig'im xonaki qarg'a yashaydi, bularning hammasini men ana o'shandan bilib olaman.

Ertasi kuni barcha gazetalarda yurak shakli ichida malika ismi sharifining bosh harflari bosilib chiqdi. Ularda shunday e'lon bosildiki, qiyofasi yoqimtoy har qanday yigit saroyga kelib malika bilan suhbatlashishi mumkin: agar ulardan qay biri o'zini xuddi o'z uyidagidek erkin tuta olsa va hammadan chechan bo'lsa, malika o'shani qayliq qilib tanlaydi. Ha, ha! — deya takrorlabdi qarg'a. — Bularning hammasi xuddi mening mana shu yerda sening qarshingda turganimdek rost gaplar! Xaloyiq saroyga yopirilib kela boshladi, ursur, itarho-itar bo'lib ketdi, biroq birinchi kuni ham, ikkinchi kuni ham hech qanday natija

chiqmadi. Ko'chada barcha kuyovlar tuppa-tuzuk gapiradilar, biroq saroy ostonasini hatlab ichkari yurishlari, kumushrang libosli soqchilarni va zar libosli xizmatkorlarni ko'rishlari, kattakon charog'on zallarga kirishlari bilanoq dovdirab qoladilar. Malika o'tirgan taxt yoniga borishlari bilanoq u aytgan gaplarni takrorlay boshlaydilar, malikaga esa buning hech keragi yo'q. Go'yo hammasiga ko'z tekkanday, afyun berib afsunlanganday! Darvozadan qaytib chiqishlari bilanoq yana so'zamol bo'lib qoladilar. Kuyovlar saroy darvozasidan eshigigacha uzundan uzoq navbatda turisha-di. O'zim o'sha yerda bo'lib, o'z ko'zim bilan ko'rdim.

— Xo'sh, Kay-chi, Kay? - deb so'rabdi Gerda. — U qachon keldi? U ham malikaga unashmoqchi bo'ldimi?

— Shoshma! Shoshma! Mana endi biz ungayam yetib keldik! Uchinchi kuni kichkina bir yigit paydo bo'ldi, karetsi yo'q, oti yo'q, shunchaki piyoda kelganicha to'g'ri saroyga yo'l oldi. Ko'zlari xuddi senikidek charaqlaydi, sochlari uzun, faqat usti juda yupun.

— Bu o'sha Kay! — shodlanib ketibdi Gerda. — Men uni topdim! — deya chapak chalib yuboribdi. — Yelkasida yo'lxaltasi bor edi, — davom etibdi qarg'a.

— Yo'q, bu uning chanasini, — debdi Gerda. — U uydan chana bilan chiqib ketgan edi. Judayam mumkin! — debdi qarg'a. — Men tuzukroq razm solganim yo'q. Xullas, qaylig'imning aytishiga ko'ra, u saroy darvozasidan kirib, kumushrang libosli soqchilarni, zinapoyalar bo'ylab saf tortgan zar libosli xizmatkorlarni ko'rganida tariqcha ham hayron bo'lmabdi, boshini likillatganicha: «Bu zinapoyalarda turish ancha zerikarli bo'lsa kerak, yaxshisi, men ichkariga kira qolay», — debdi. Zallar esa charaqlab yotar ekan. Xufiya maslahatchilar va boshqa saroy a'yonlari etiksiz yurgan holda tilla idishlarni u yoqdan bu yoqqa tashirekanlarki, bunaqangi tantana bo'lgan emas! Yigitning etigi dahshatli g'archillar, u esa bunga parvo ham qilmas ekan.

— Bu Kay bo'lishi kerak! — xitob qilibdi Gerda. — Men bilaman, u yangi etikda edi. Buvisi tomon yurganida etigi qanday g'archillaganini o'zim eshitganman.

— Shunaqa, etiklari poyma-poy g'archillardi, — davom etibdi qarg'a. — Lekin u malika oldiga dadil yurib bordi. Malika urchuq charxiday keladigan marvarid ustida o'tirar, atrofini saroy xonimlari, ularning xizmatkorlari, yana xizmatkorlarning xizmatkorlari va yigitlar, yigitlarning xizmatkorlari, bu xizmatkorlarning ham xizmatkorlari qurshab olishgan, bu xizmatkorlarning esa yana xizmatkorlari bor ekan. Eshikka yaqin turgan sari ularning burni ko'tarilib borar ekan. Xizmatkorning xo'jayini. bu xo'jayinning xo'jayini va nihoyat, shundoq eshik oldida turgan xo'jayin — u shu qadar nufuzli amaldor ekan, ko'z qiri tushgan kishini titroq bosar ekan!

— Buncha qo'rqinchli! — debdi Gerda. — Xo'sh, shunday qilib, Kay malikaga uylandimi?

— Agar qarg'a bo'lmaganimda, garchi unashirilgan bo'lsam ham, unga o'zim uylanib olardim. U yigit malika bilan suhbatlasha ketdi, men qarg'a tilida xuddi qanday biyron gapirsam, u ham bundan yomon gapirmasdi, harholda, xonaki qaylig'im menga shunaqa dedi. U o'zini juda erkin, xushfe'l tutdi, men

unashgani emas, faqat malikaning dono gaplarini eshitgani kelganman, dedi. Xullasi kalom. malika yigitga yoqib qoldi, yigit esa malikaga.

— Ha-ha, bu o'sha, Kay! — debdi Gerda. — U xuddi shunday aqlli bola! U arifmetikadan to'rt amalni, hatto kasriy sonlarni ham biladi! Oh, meni saroyga boshlab boraqol!

— Aytishga oson! — debdi qarg'a,— bajarish qiyin.

Shoshma, men qaylig'im bilan gaplashib ko'raychi, u biron chorasini topib, bizga maslahat berar. O'ylaysanki, seni he yo'q-be yo'q to'ppa-to'g'ri saroyga kiritaverishadimi? Sendaqangi qizchalarga ko'zlari uchib turgani yo'q!

— Meni qo'yishadi! — debdi Gerda. — Kay mening kelganligimni eshitsu, darhol oldimga yugurib chiqadi.

— Meni mana shu panjara yonida kutib tur, — deya bosh silkitibdi qarg'a va uchib ketibdi.

U kech tushganda qaytib kelibdi-yu qag'illab qolibdi:

—Qar-qar! Mening qaylig'im senga ko'pdan ko'p salom aytib, manavi non bo'lagini berib yubordi. Buni u oshxonadan ilib chiqibdi, u yerda non juda ko'p, harholda, sen ochiqib qolgandirsan... Xo'sh, sen saroyga kirolmaysan: oyoqyalangsan-ku, axir, kumushrang libosli soqchilar bilan zar libosli xizmatkorlar seni sirayam kiritishmaydi.

Lekin yig'lama, bari bir kirasan. Qaylig'im malikaning yotog'iga boradigan yashirin yo'lni ham, kalit bekitib qo'yilgan joyni ham biladi.

Shu tariqa ular bog'ga kirib borib, kuzgi yaproqlar birin-sirin to'kilib yotgan uzun xiyobondan yurib ketishibdi, saroy chiroqlari o'chgandan so'ng qarg'a qizchani qiya ochiq eshikka boshlab kelibdi.

Qo'rquv va intiqlikdan Gerdaning yurakkinasi shunaqangi qattiq dukillab ketibdiki! Go'yo bema'ni bir ish qilib qo'ygandek ekan, aslida esa u faqat o'z Kayi shu yerdami yoki yo'qligini bilmoqchi ekan, xolos. Ha, ha, u albatta shu yerda! Uning aqlli nigohlari, uzun sochlari, bir paytlar ular birgalikda gul butalari ostida o'tirganlarida bolakayning o'ziga jilmayib qo'ygani Gerdaning ko'z o'ngida jonlanib ketibdi. Endilikda, hozir u Gerdani ko'rsa, uning uchun Gerda nechog'li olis yo'l bosib kelganini eshitsu, uydagilar uning uchun qanchalik kuyinganliklarini bilsa, naqadar suyunib ketadi. Gerda qo'rquv va shodlikdan o'zini yo'qotib qo'yibdi.

Mana, ular zinapoya maydonchasiga yetib borishibdi. Javonda chiroq yonar, pastda esa xonaki qarg'a har tomonga alanglab turar ekan. Gerda o'tirib, xuddi buvisi o'rgatgandek ta'zim qilibdi.

—Qallig'im menga siz haqingizda ancha yaxshi gaplarni gapirib bcrdi. oyimqiz! — debdi xonaki qarg'a. — Hayotingiz judayam ta'sirli ekan! Malol kelmasa. chiroqni ko'tarib olsangiz, men esa oldinda boraman. To'g'ri yo'l bo'ylab yuramiz, bu yerda hech kimga duch kelmaymiz.

— Menimcha. bizning ortimizdan kimdir kelayotir, — debdi Gerda, xuddi shu payt uning yonginasidan allaqanday sharpalar: oyoqlari ingichka. yollari yellanib yotgan otlar, ot mingan ovchilar,

xonimlar va janoblar o'tib ketibdi.

— Bular — tushlar! — debdi xonaki qarg'a. — Ular yuksak zotlarning xayollarini ovga olib ketish uchun kelishadi. Bizga shunisi yaxshi, uxlab yotganlarni tomosha qilish qulayroq bo'ladi.

Ular devorlari pushtirang atlas bilan qoplangan. ustidan gullar solingan birinchi zalga kirishibdi. Qizchani yonidan yana tushlar o'tib qolibdi, biroq ularshunchalik jadal o'tib ketibdiki, u hatto otliqlarni ko'rishga ulgur olmay qolibdi. Bir zal ikkinchisidan go'zalroq, shuning uchun bu yerda anqayib qolib ketish hech gap emas ekan. Nihoyat, ular yotoqxonaga ham yetib borishibdi. Uning shift] qimmatbaho billur barglari osilib turgan ulkan palma daraxtini eslatar ekan: uning o'rtasidan yo'g'on tilla shox osilib tushgan bo'lib, unga nilufar shaklidagi ikkita karavot osilgan ekan. Ulardan biri oppoq bo'lib, unda malika uxlab yotar ekan, ikkinchisi qizil bo'lib. Gerda uning umidi undan Kayni topish ekan. Qizcha qizil gulbarglarni sal surib qaragan ekan. to'q sarg'ish sochli ensaga ko'zi tushibdi. Kay-ku bu! Qizcha uning nomini baralla aytib yuboribdi va chiroqni uning yuziga tutibdi. Tushlar shovqin solib chekinibdi; shahzoda uyg'onib, sekin o'girilibdi... Evoh, bu Kay emas ekan! Shahzodaning faqat ensasi Kaynikiga o'xshar, biroq bu ham yosh va ko'rkam ekan. Oq nilufardan malika boshini chiqarib, qanday hodisa ro'y berganligini so'rabdi. Gerda yig'laganicha boshidan o'tgan barcha voqealarni gapirib beribdi, qarg'alar unga qanday xizmat qilganliklarini ham qistirib o'tibdi.

— Voy sho'rlikkina! — deyishibdi shahzoda va malika, so'ng qarg'alarini maqtab, ularning qilmishlari uchun aslo xafa emasliklarini, faqat endi bundan keyin zinhor bunaqangi ishni takrorlamasliklari lozimligini aytishibdi, hatto ularni mukofotlamoqchi ham bo'lshibdi.

— Ozod qush bo'lishni istaysizlarmi? — deb so'rabdi malika. — Yoki oshxona qoldiqlari bilan to'liq ta'minlanadigan saroy qarg'asi lavozimini xohlaysizlarmi?

Qarg'a bilan qarg'a ta'zim bajo keltirishib, saroy lavozimini so'rashibdi. Ular keksalik haqida o'ylab:

— Qartayib qolganingda bir burda noning naqd bo'lsa yaxshi-da! — deyishibdi.

Shahzoda o'rnidan turib, o'z to'shagini Gerdaga bo'shatib beribdi — hozircha u qizcha uchun bundan boshqasini qila olmas ekan-da! Qizcha esa qo'l qovushtirib yotar ekan: «Barcha odamlar va jonzotlar naqadar mehribon», — degan o'y xayolidan o'tibdi va ko'zlarini yumib, shirin uyquga ketibdi. Tushlar esa yana yotoqxonaga uchib kelishibdi, bu gal ular kichik chanaga o'tirib olgan Kayni olib kelishibdi, u qizchaga bosh silkib qo'yibdi. Afsuski, bularning hammasi tush ekan va qizcha uyg'onishi bilanoq yana barchasi g'oyib bo'libdi.

Ertasi kuni qizchaga boshdan oyoq ipag-u kimxob liboslar kiygizishibdi va saroyda qancha xohlasa. shuncha turaverishi mumkinligini aytishibdi.

Qizcha bu yerda uzoq yashab qolishi mumkin ekan, biroq bir necha kun mehmon bo'lgach, ot qo'shilgan arava va bir juft boshmoq berishlarini o'tinibdi — u yana yorug' dunyo bo'ylab o'z tutingan akasini izlashga tushmoqchi ekan.

Unga boshmoq ham. yengcha ham, g'aroyib ko'ylak ham herishibdi, barcha bilan xayrlashib, darvoza

oldiga borgan ham ekanki, bir kareta kelib to'xtabdi, bu kareta sof tilladan bo'lib, unda shahzoda va malikaning gerblari yulduzdek shu'la sohib turar ekan; aravakash, xizmatkor va izvoshchilarning — qizchaga hatto izvoshchilar ham berishibdi — boshlarini kichkina tilla tojlar bezab turar ekan.

Gerdani shahzoda va malikaning o'zlari karetaga o'tqazib. unga oq yo'l tilab qolishibdi.

Uylanib ulgurgan o'rmon qarg'asi esa qizcha bilan yon mayon o'tirganicha — u otlarga orqa o'girib o'tirolmas ekan-da — uni uch milgacha kuzatib boribdi. Xonaki qarg'a saroy darvozasiga qo'nganicha qanotlarini silkib qolibdi. U Gerdani kuzatgani bora olmas, chunki o'ziga saroydan amal tekkani va ancha bo'kib yeb qo'ygani uchun bosh og'rigidan azob chekayotgan ekan. Kareta har xil shirinliklarga, o'rindi q ostidagi quti esa meva-cheva va shirin kulchalarga to'la ekan.

—Xayr! Xayr! — deya qichqirishibdi shahzoda va malika.

Gerda ham, qarg'a ham yig'lab olishibdi. Uch mil yo'l bosishgach, qarg'a ham qizcha bilan xayrlashibdi. Ajr alish juda og'ir ekan! Qarg'a daraxtga qo'nib olib, quyoshdek charaqlab ketayotgan kareta to'ko'zdan yitgunicha qop-qora qanotlarini silkib turibdi.

BESHINCHI VOQEA

Kichkina qaroqchi qiz

Gerda qaroqchilar yashaydigan qop-qora o'rmonga kirib boribdi; olovdek yonib borayotgan kareta qaroqchilarning ko'zlarini qamashtirib yuboribdi va ular bunga chiday olmay:

—Tilla! Tilla! — deya qichqirganlaricha oldinga tashlanib, otlarning jilovini qo'lga olibdilar. kichkina izvoshchi, aravakash va xizmatkorlarni o'ldirib, karetdan Gerdani tortib tushiribdilar.

—Voh, qanday yoqimtoygina, yog'liqqina! Yong'oq berib boqilgan! — debdi uzun tikanak soqolli, baroq qoshlari osilib tushgan qaroqchi kampir. — Qo'zichoqdek semizgina ekan! Xo'sh, ko'raylik-chi, buning mazasi qanaqa ekan!

Shunday deya u yaraqlab turgan o'tkir pichog'ini chiqaribdi. Qanday dahshat!

—Voy! — deya qichqirib yuboribdi to'satdan u: chunki o'z qizi uning qulog'ini tishlab olgan ekan-da: kampirning ortida turgan bu qiz juda bevosh va o'zboshimcha.

lekin istarasi issiqqina ekan. — Xap sanimi, yaramas qiz! — deb qichqiribdi onasi, ammo Gerdani o'ldirishga ulgura olmabdi.

—U men bilan o'ynaydi, — debdi kichkina qaroqchi qiz. — U menga o'z yengchasini, chiroyli ko'ylagini beradi, to'shagimda men bilan birga uxlaydi.

Shunday deya qizcha yana onasini tishlab olgan ekan, u sakrab tushib, turgan yerida pildirab aylana boshlabdi. Bundan qaroqchilar rosa xoxolab kulishibdi.

—Qizchasi bilan zap o'ynar ekan-da! — deyishibdi ular.

—Men karetaga chiqmoqchiman. — deb qichqiribdi kichkina qaroqchi qiz va o'z aytganida turib olibdi — u o'lgudek tantiq va qaysar qiz ekan.

Gerda bilan ikkalasi karetaga o'tirib, o'nqir-cho'nqirlardan oshganlaricha quyuq o'rmon ichiga kirib

ketishibdi.

Kichkina qaroqchi qizning bo'yi Gerdaga teng bo'lsa ham, biroq undan kuchliroq. yelkalari kengroq va ancha qoramag'izroq ekan. Uning ko'zlari qop-qora, biroq qanaqadir g'amgin ekan. U Gerdani quchib turib shunday debdi:

—Agar mening sendan jahlim chiqmasa, ular seni o'ldirishmaydi. Sen rostdanam malikamisan?

—Yo'q, — deb javob beribdi qizcha va boshidan o'tgan barcha voqealarni, Kayni qanchalar yaxshi ko'rishini aytib i beribdi.

Kichkina qaroqchi qiz unga jiddiy nazar tashlab, yengilgina bosh silkib qo'yibdi-da, shunday debdi:

—Agar mening sendan jahlim chiqsa ham. ular seni o'ldirmaydilar — yaxshisi, seni o'zim o'ldirib qo'ya qolaman!

Shunday deya u Gerdaning ko'z yoshlarini artibdi. so'ng ikkala qo'lini ham uning ajoyib, yumshoq, issiqqina yengchasiga tiqib olibdi.

Mana, kareta ham to'xtabdi, ular qaroqchilar qo'rg'onidagi saroyga yetib kelgan ekanlar.

Saroyning devorlari yorilib ketgan, bu yoriqlardan qarg'a-quzg'unlar otilib chiqar ekan. Qayerdandir kattakon buldog itlar sakrab chiqar, ularning har biri odamni tiriklay yutib yuborishi hech gap etnas ekan; lekin ular faqat baland-baland sakrar, ammo hech vovullamas, chunki bu taqiqlangan ekan. Yarmi qulab tushgan devorlari qorakuya bilan qoplangan, ostiga tosh yotqizilgan kattakon zalning o'rtasida gulxan yonib turar ekan. Shiftga o'rlab yotgan tutun chiqib ketishi uchun o'zi tuynuk topishi kerak ekan. Gulxan ustidagi doshqozonda sho'rva qaynar. sixlarda esa tovushqon va quyonlar pishmoqda ekan.

—Sen men bilan mana bu yerda. mening mitti hayvonot bog'imda uxlaysan, — debdi Gerdaga kichkina qaroqchi qiz.

Qaroqchilar qizchani yedirib-ichirishibdi, so'ng har qaysisi somon to'shalib, ustidan gilam yozilgan o'z burchagiga qarab ketishibdi. Tepadagi xodalarda yuzdan ortiq kaptar qo'nib olgan ekan. Ular go'yo uxlayotganga o'x-shashsada, qizchalar kelganda sekin tebranib qo'yishibdi.

—Hammasi meniki! — debdi kichkina qaroqchi qiz va bir kaptarni oyoqlaridan ushlab olib shunaqangi silkibdiki, kaptarning qanotlari potirlab ketibdi. — Ma, buni o'p! — deya qichqirganicha kaptarni Gerdaning naq yuziga qadabdi.

—Mana bu yerda esa o'rmon mug'ambirlari o'tirishibdi.

—deya davom etibdi u oldi cho'pdan panjara qilingan devor kavagidagi ikki kaptarni ko'rsatib. — Bu ikkalasi — o'rmon mug'ambirlari. Ularni qafasda saqlash kerak, yo'qsa darhol uchib ketishadi. Mana bu esa mening aziz otaxonim! — deya kichkina qaroqchi qiz yaltiroq mis bo'yinbog'dan devorga bog'lab qo'yilgan shimol bug'usining shoxidan tortib qo'yibdi. — Uni ham bog'lab qo'yish kerak, yo'qsa qochib ketadi! Har kech men uning tomog'ini o'tkir pichog'im bilan qitiqlayman — u bundan o'lgudek qo'rqadi.

Shunday deya kichkina qaroqchi qiz devor yorig'idan uzun bir pichoq chiqaribdi-da, uni bug'uning tomog'iga qadabdi. Sho'rlik jonivor tipirchilab qolibdi, qizcha esa xoxolab kulganicha Gerdani o'z to'shagi tomon boshlabdi.

—Nahotki sen pichoq bilan uxlasang? — deb so'rabdi

Gerda.

—Har doim! — deb javob beribdi kichkina qaroqchi qiz. — Har balo ro'y berishi mumkin! Xo'sh, menga yana bir marta Kay haqida, o'zingning dunyo bo'ylab qilgan safaring haqida so'zlab ber-chi.

Gerda so'zlab beribdi. O'rmon kaptarlari qafasda sekin g'uvurlab qo'yishibdi; boshqa kaptarlar esa uxlab qolishgan ekan. Kichkina qaroqchi qiz bir qo'li bilan Gerdaning bo'ynidan quchganicha — ikkinchi qo'lida pichoq bor ekan — xurrak ota boshlabdi, biroq Gerda o'zini o'ldirishadimi yoki tirik qoldirishadimi

— buni bilmay turib ko'z yuma olmas ekan.

Qo'qqisidan o'rmon kaptarlari g'uvurlab qolishibdi:

— G'urr! G'urr! Biz Kayni ko'rganmiz. Oq tovuq o'z ortidan uning chanasini tortib borardi, uning o'zi esa Qor malikasining chanasida o'tirardi. Biz jo'jalar hali inimizda yotganimizda ular o'rmon ustidan uchib o'tishdi. Malika bizga nafasini ufurgan edi, ikkalamizdan boshqa hamma kaptarlar o'lib qoldi. G'urr! G'urr!

— Rost aytyapsizmi? — xitob qilibdi Gerda. — Qor malikasi qayoqqa uchib ketdi, axir? Bilasizmi?

— Laplandiyaga ketgan bo'lsa kerak — axir u yer abadiy qor va muzlikdan iborat-da. Anavi bog'lab qo'yilgan shimol bug'usidan so'rab ko'r-chi.

— Ha, u joylar abadiy qor va muzlikdan iborat. Judayam ajoyib joy! — debdi shimol bug'usi. — U yerda yaraqlab yotgan bepoyon kengliklarda bemalol sakrab yurishing mumkin. U yerda Qor malikasining yozgi chodiri tikilgan, uning doimiy saroyi esa Shimoliy qutbda, Shpisbergen orolida joylashgan.

— O Kay, mening aziz Kayginam, — deb xo'rsinib-di Gerda.

— Qimirlamay yot, — debdi kichkina qaroqchi qiz, -yo'qsa seni chavaqlab tashlayman!

Ertalab Gerda unga o'rmon kaptarlaridan eshitganlarini aytib beribdi. Kichkina qaroqchi qiz Gerdaga jiddiy tikilgach, bosh silkib shunday debdi:

— Xo'sh, shundoq bo'lsin ham deydik!.. Laplandiya qayerdaligini bilasanmi o'zing? — deb so'rabdi u shimol bug'usidan.

— Men bilmasam, kim ham bilardi! — deb javob berarkan, bug'uning ko'zlari chaq nab ketibdi. — Men o'sha yerda tug'ilib, o'sha yerda ulg'aydim, u yerning qorli kengliklarida sakrab-sakrab yurganman.

— Unda eshit, — debdi kichkina qaroqchi qiz Gerda-ga. — Ko'rib turibsanki, biznikilarning barchasi ketishdi, uyda faqat onam qolgan; birozdan so'ng u ham kattakon shisha idishidan ichib olib, mudray boshlaydi, ana o'shanda senga biror foydam tegib qolar.

Mana, nihoyat. kampir o'z butilkasidagini simirib. xurрак ota boshlabdi, kichkina qaroqchi qiz esa shimol bug'usi yoniga kclib debdi:

— Hali sen bilan uzoq vaqt ko'ngilxushlik qilishim mumkin edi! Tomog'ingni o'tkir pichoq bilan qitiqlaganimda o'lguday kulgili ahvolga tushar eding. Mayli, nima bo'lsa bo'ldi. Endi bog'ichingni yechib, seni ozodlikka chiqaraman. O'z Laplandiyangga qochib ketishing mumkin, lekin buning evaziga sen manavi qizchani Qor malikasining qarorgohiga olib borishing lozim — u yerda buning tutingan akasi bor. Qizchani hikoyasini eshitgan bo'lsang kerak, axir? U hammasini baralla aytib berdi-ku, sening quloqlaring esa hamisha ding turadi.

Shimol bug'usi sevinganidan sakray boshlabdi. Kichkina qaroqchi qiz uning ustiga Gerdani mindiribdi, ishonchli bo'lishi uchun uni bug'uga mahkam qilib bog'labdi, hatto qizcha o'tirganda qulay bo'lishi uchun uning ostiga yumshoq yostiq ham qo'yib qo'yibdi.

— Shundoq bo'la qolsin, — debdi u so'ng, — mo'yna etikchalarini o'zingga qaytarib beraman — u

yoqlar sovuq bo'ladi-da, axir! Yengchangni esa o'zimga olib qolaman, ujudayam ajoyib. Biroq seni sovqottirib qo'ymayman: manavi onamning kattakon qo'lqoplari, u sening tirsaklaringgacha yetadi. Qani, qo'lingni tiqib ko'r-chi! Ana

shundoq, endi sening qo'llaring ham badbashara onamning qo'llariga o'xshab qoldi.

Gerda shodligidan yig'lab yuboribdi.

—Hiqillab turadiganlarga toqatim yo'q! — debdi kichkina qaroqchi qiz. — Endi sen xursand bo'lishing kerak. Ochiqib qolmasliging uchun manavi ikkita non bilan bir bo'lak go'shtni olib ol.

Nonni ham, go'shtni ham bug'uga bog'lab qo'yibdi.

So'ng kichkina qaroqchi qiz eshikni ochib, itlarni uyga qamab qo'yibdi-da, bug'u bog'langan ipni o'tkir pichog'i bilan kesib, unga debdi:

—Qani, tezroq! Faqat qizchani qattiq ehtiyot qil.

Gerda kattakon qo'lqop kiyib olgan ikkala qo'lini ham kichkina qaroqchi qizga cho'zib, u bilan xayrlashibdi.

Shimol bug'usi o'rmon bo'ylab o'nqir-cho'nqirlardan, botqoq va cho'llardan osha yelib ketibdi. Bo'rilar uvillab, qarg'alar qag'illab qolishibdi.

Uf! Uf! — degan tovush kelibdi qo'qqisdan osmondan, go'yo osmon o't-olovdan aksirib yuborgandek bo'libdi.

—Mana menga qadrdon shimol yog'dusi! — debdi bug'u.

— Ko'ryapsanmi, qanday yonayotir.

U kechani kecha, kunduzni kunduz demay ilgarilab ketaveribdi. Non ham, go'sht ham tugab bo'libdi, nihoyat ular Laplandiyaga yetib kelishibdi.

OLTINCHI VOQEA

Lapland kampir va fin xotin

Bug'u bir g'arib kulba oldida to'xtabdi. Kulbaning tomi yerga tegib turar, eshigi shu qadar past ekanki. kishi ichkariga emaklab zo'rg'a kirar ekan.

Uyda faqat bir lapland kampir bo'lib, u moychiroq yorug'ida baliq qovurayotgan ekan. Shimol bug'usi kampirga Gerdaning boshidan o'tgan barcha voqealarni gapirib beribdi, lekin bundan oldin o'zining ko'rgan-kechirganlarini hikoya qilibdi, bug'u uchun bu ancha muhimroq ekan-da! Gerda shu qadar sovqotib qolgan ekanki. tili kalimaga kelmabdi.

—Voy sho'rliklar! — debdi lapland kampir. — Hali anzilingiz juda olis! Finlandiyadagi Qor malikasi yashaydigan va har kecha zangori bengal shamlarini yoqadigan bog'chasiga yetib borguncha yuz mildan ko'proq yo'l bosish kerak. Mening qog'ozim yo'q, shuning uchun quritilgan treska balig'iga xat yozib beraman, uni siz o'sha yerda yashaydigan fin xotinga yetkazasiz, u sizga nima qilishingiz lozimligini mendan yaxshiroq o'rgatib qo'yadi.

Gerda isinib, yeb-ichib olgach, lapland kampir quritilgan treska balig'iga bir necha so'z yozib, Gerdaga

uni yaxshilab asrashni buyuribdi, so'ng qizchani bug'u ustiga bog'lab qo'yibdi, bug'u tag'in yelib ketibdi.

Uf! Uf! — degan tovush kelibdi yana osmondan va yerga g'aroyib zangori olov ustunlari osilib tusha boshlabdi. Shu tariqa shimol bug'usi Gerda bilan Finlandiyaga yetib kelibdi va fin xotinning mo'risini taqillatibdi, chunki uning uyida hattoki eshik ham yo'q ekan,

Uyning ichi hammomdek issiqqina ekan! Semizgina, baqaloq fin xotinning o'zi yarim yalang'och bo'lib olgan ekan. U darhol Gerdaning ko'ylagi, qo'lqop va etiklarini yechib olibdi, yo'qsa qizcha dimiqib qolar ekan-da, bug'uning boshiga esa bir bo'lak muz qo'yibdi va shundan keyingina quritilgan treskaga yozilgan xatni o'qishga tutinibdi.

U xatni boshdan oxirigacha to yod bo'lib ketmaguncha, uch marta qayta o'qib chiqibdi, so'ng treskani qozonga tashlab qo'yibdi, chunki baliq yegulikka asqotar ekan-da, fin xotin esa hech narsani bekorga isrof qilmas ekan.

Shunda bug'u avval o'z ko'rgan-kechirganlarini, so'ngra Gerdaning boshidan o'tgan voqealarni hikoya qilib beribdi. Fin xotin aqlli ko'zlarini pirpiratib o'tirsa-da, hech narsa demabdi.

—Sen judayam dono ayolsan, — debdi bug'u. — Sen qizchaga o'n ikki bahodirning kuchini bag'ishlaydigan ichimlik tayyorlab bera olasanmi? Shunday qilganingda u Qor malikasidan g'olib kelardi.

—O'n ikki bahodirning kuchini?! — debdi fin xotin. — Bundan bir narsa chiqarmikan? Shunday deya u taxmondan kattakon charm bog'lamni olibdi va uni ochibdi: unda qandaydir g'alati yozuvlar bitib tashlangan ekan.

Fin xotin uni o'qiy boshlabdi, to peshanasidan ariq-ariq ter quyilmaguncha o'qiyveribdi.

Bug'u yana Gerda nomidan o'tina boshlabdi, Gerda esa fin xotining ko'zlari jiqqa yoshga to'lib, shunday iltijo bilan boqibdiki, tag'in ayolning ko'zlari pirpirab ketibdi va u bug'uni bir chetga boshlab borib, boshidagi muzni almashtiribdi-da, sekin shivirlabdi:

—Kay chindan ham Qor malikasining huzurida, lekin u bundan judayam rozi va o'zi uchun bundan yaxshiroq joy yo'q deb o'ylaydi. Buning sababi uning ko'zi va yuragiga o'mashib qolgan ko'zgu parchalaridir. Ularni chiqarib tashlash kerak, yo'qsa Qor malikasi unga hukmron bo'lib qolaveradi.

—Sen Gerdaga uni hammadan ham kuchliroq qiladigan biron narsa bera olmaysanmi?

—Qizchani bundan ko'ra yanada kuchliroq qilish mening qo'limdan kelmaydi. Qaragin axir, uning o'zi naqadar qudratli! Ko'rmayapsanmi, unga ham insonlar, ham hayvonlar xizmat qilmoqda. Axir, u yarim dunyoni yalangoyoq bosib o'tgan! Unga kuch bag'ishlash bizga qolgani yo'q, uning kuchi yuragida, uning kuchi gunohsiz,

ma'sum bir qizcha ekanligida. Agar uning o'zi Qor malikasining saroyiga kirib borib, Kayning yuragidan ko'zgu parchasini chiqarib ola bilmasa, turgan gapki, biz unga yordam bera olmaymiz! Bundan ikki mil narida Qor malikasining bog'i boshlanadi. Qizchani u yerga olib borginda, qizil mevalari to'kilib yotgan buta ostiga tushir, so'ng hayallamay bu yerga qaytib kel.

Shunday deya fin xotin Gerdani bug'u ustiga o'tqazibdi. bug'u esa bor kuchi bilan yelib ketibdi.

—Voy, mening issiq etiklarim yo'q-ku! Voy, mening qo'lqoplarim yo'q-ku! — deb qichqiribdi sovuqqa chiqib qolgan Gerda.

Biroq bug'u qizil mevali buta yoniga yetmaguncha to'x-tamabdi. Qizchani shu yerga tushirib, dudoqlaridan o'par ekan, bug'uning yuzlaridan marvariddek yirik-yirik ko'z yoshlari oqibdi. So'ng u ortiga qarab o'qday uchib ketibdi.

Sho'rlik qizcha chirsillab turgan sovuqda boshmoqsiz, qo'lqopsiz yakka-yu yolg'iz qolib ketibdi.

U bor kuchi bilan ilgariga chopib boraveribdi. Uning qarshisidan bir to'p qor lashkari chiqib qolibdi, ular osmondan tushmagan, chunki osmon judayam ochiq, unda shimol yog'dusi shu'lalanib turar ekan, yo'q, bu lashkar yer bag'irlab to'g'ri Gerda tomon yelib kelar ekan, ularning har biri borgan sari kattalasha boshlabdi.

Gerda kattalashtirib ko'rsatadigan shisha ostida ko'rgan kattakon go'zal qor zarralarini eslabdi, biroq bular unga qaraganda juda ulkan, dahshatli va hammasi tirik ekan.

Bu Qor malikasining ilg'or old qo'shini ekan. Ulardan biri kattakon va xunuk tipratikanni, ikkinchisi qirq boshli ilonni eslatsa, uchinchisi junlari hurpayib ketgan qo'pol ayiqni eslatar ekan. Lekin ularning hammasi ko'zni qamashtirgudck oppoq, hammasi tirik qor zarralari ekan.

Biroq Gerda dadil ilgarilaganidan ilgarilab boraveribdi va nihoyat, Qor malikasining qarorgohidan chiqib qolibdi.

Endi ko'raylikchi, Kayning holi ne kechdi ekan. U Gerda haqida o'ylamas, uning shundoq yonginasiga kelib qolganini esa xayoliga ham keltirmas ekan.

YETTINCHI VOQEA

Qor malikasining qarorgohida va undan song nimalar ro'y berganligi haqida

Qarorgohning devorlari izg'irindan, eshik va derazalari guvillagan quyundan iborat ekan. Bu saroyning quyun izg'ishidan hosil bo'lgan yuzdan ortiq zali bor ekan. Ularning barchasini shimol yog'dusi yoritib turar, eng katta zal esa bir necha milga cho'zilgan ekan. Naqadar bo'm-bo'sh, naqadar sovuq ekan ushbu yaltirab yotgan saroy, xursandchilik bu yerga hech qachon mehmon boimagan ekan. Bu yerda hech qachon bo'ron musiqalari ostida orqa oyoqlarida nazokat va qunt bilan yura oladigan oq ayiqlar juft-juft bo'lib raqsga tushadigan ballar¹ bo'lmas, hech qachon oxiri janjal va mushtlashishga aylanib kctadigan qarta o'yinlari o'ynalmas, oppoq tulkichalar bir qadah qahva ustida suhbat qurgani kelmas ekan.

Sovuq, bo'm-bo'sh, haybatli saroy! Shimol yog'dusi shu qadar aniq vaqt oralig'ida shu'lalanib yonar ekanki, qaysi daqiqada shu'la kuchayib, qachon so'nishini to'ppa-to'g'ri hisob-kitob qilish mumkin ekan. Eng katta, bo'm-bo'sh qor zalining o'rtasida muzlab yotgan ko'l bor ekan. Uning muzi minglab bir xil va to'ppa-to'g'ri darzlarga bo'lingan ekanki, bu qandaydir ko'zboyloqchilik bilan qilinganga o'xshar ekan. Qor malikasi uyda bo'lganida ana shu ko'lning o'rtasidagi aql ko'zgusi qarshisida o'tirar, uning fikricha, bu

dunyodagi yagona va eng yaxshi ko'zgu ekan.

Kay sovuqdan ko'karib, qorayib ketgan, lekin buni o'zi sezmas, Qor malikasining afsunlari uni sovuqni sezmaydigan qilib qo'ygan, buning ustiga, yuragining o'zi ham bir parcha muzdan farq qilmas ekan. Kay yassi, qirrador muz bo'laklari bilan ovora, ulardan har xil shakllar yasab o'tirar ekan. Yog'och taxtachalardan yasaladigan, xitoy boshqotirmasi deb ataladigan shunaqangi o'yin ham bor-ku. Kay ham turli xil g'alati shakllar yasay, faqat uniki muzdan bo'lib, aqlning muz o'yini deb atalar ekan. Uning nazarida bu shakllar san'at mo'jizasi bo'lib, ularni terish esa eng muhim mashg'ulot hisoblanar ekan. Buning sababi shunda ekanki, uning ko'zlariga sehrli ko'zgu parchasi o'rnashib qolgan ekan.

U butun boshli so'zlar kelib chiqadigan shakllarni ham yasay olar, lekin o'zi juda-juda xohlaydigan so'z — «mangulik» so'zni hech yasay olmas ekan. Qor malikasi unga: «Agar sen bu so'zni tera olsang, o'z-o'zingga xo'jayin bo'lasan, shunda men senga butun dunyoni va bir juft yap-yangi konkini sovg'a qilaman», — degan ekan. Biroq u bu so'zni sirayam yasay olmas ekan.

— Endi men issiq o'lkalarga uchib kctaman, — debdi Qor malikasi. — Qora qozonlarni ham ko'zdan kechiraman.

¹ Bal — katta bazm, o'yin-raqs kechasi.

U Etna va Vezuviy deb ataladigan yonartog'laming kosasini shunday deb atar ekan.

—Ularni biroz oqartiraman. Limon va uzumlarga buning foydasi tegadi.

U uchib ketibdi. Kay bepoyon, bo'm-bo'sh zalda yolg'iz qolibdi, muz parchalariga qarab shu qadar ko'p o'ylabdiki, boshi yorilib ketgudek bo'libdi. O'z joyida oqarib ketganicha xuddi jonsizday qimirlamay o'tiraveribdi. Uni sovuqdan butunlay qotib qolgan bo'lsa kerak deb o'ylash mumkin ekan.

Shu payt izg'irinlar izillab yotgan ulkan darvozadan Gerda kirib kelibdi. U kirishi bilanoq izg'irinlar uyquga ketgandek tinchib qolishibdi. U ulkan, bo'm-bo'sh muz zalga kirib, Kayni ko'rib qolibdi. Darhol uni tanib, bo'yniga osilganicha mahkam quchoqlab olibdi va:

—Kay. azizim Kay! Oxiri seni topdim! — deya qichqirib yuboribdi.

Leikin bolakay avvalgidek harakatsiz va sovuqqon holda o'tiraveribdi. Shunda Gerda yig'lab yuboribdi; qaynoq ko'z yoshlari bolakayning ko'ksiga oqib tushibdi, undan yuragiga o'tib, muz qobig'ini ham, ko'zgu parchasini ham eritib yuboribdi. Kay Gerdaga qaragan ekan, qo'qqisdan ko'zlariga yosh quyilib kelibdi. shu qadar qattiq yig'labdiki. ko'zidagi ko'zgu parchasi ham ko'z yoshlariga qo'shilib chiqib ketibdi. Shunda u Gerdani tanib qolib, xursand bo'lib ketibdi:

—Gerda! Azizim Gerda!.. Shuncha paytdan beri qayoqda eding? Mening o'zim ham qayerlarda bo'ldim ekan? — u atrofga razm solib chiqibdi. — Bu yer bunchalar sovuq. bo'm-bo'sh!

Shunday deya Gerdaning pinjiga suqilibdi. Qizcha esa shodligidan nuqul goh kulib, goh yig'lar ekan. Bu shunaqangi ajoyib manzara ekanki, hatto muz bo'laklari ham raqsga tushib ketishibdi, o'ynay-o'ynay toliqqach, yerga cho'zilganlaricha Qor malikasi Kayga yasashni buyurgan so'zni hosil qilishibdi. Bu so'zni yasasa, u o'z-o'ziga xo'jayin bo'lar hamda malikadan sovg'aga butun dunyoni va bir juft konkini olar ekan.

Gerda Kayning ikkala yuzidan o'pgan ekan, ular yana atirgul kabi qip-qizil tusga kiribdi; ko'zlaridan o'pgan ekan, ular charaqlab ketibdi, qo'l va oyoqlaridan o'pgan ekan, bolakay yana tetik va soppa-sog'

bo'lib qolibdi.

Qor malikasi qachon xohlasa shunda qaytar — Kayning ozodlikka chiqish haqidagi vasiqasi esa shu yerda, muz harflar bilan yozib qo'yilgan ekan.

Kay va Gerda qo'l ushlaganicha muz qarorgoxdan chiqishibdi. Ular yo'l-yo'lakay buvilari haqida, o'z bog'chalarida gullaydigan atirgullar haqida suhbatlasha ketishibdi. ularning qarshisidan esayotgan asov shamollar tinib, quyosh jamol ochibdi. Qizil mevali buta ostiga yetib kelganlarida esa ularni shimol bug'usi kutib turgan ekan.

Kay va Gerda avval fin xotinnikiga borib isinishibdi va uyga ketadigan yo'lni so'rab olishibdi, so'ng lapland kampirnikiga borishibdi. Kampir ularga yangi ko'ylak tikib beribdi, o'z chanasini tuzatib, bu ikkalasini kuzatib qo'ygani yo'lga tushibdi.

Bug'u ham bu ikki yosh yo'lovchini ilk ko'katlar unib chiqa boshlagan Laplandiya chegarasigacha kuzatib qo'yibdi. Shu yerda Kay va Gerda bug'u hamda lapland kampir bilan xayrlashishibdi.

Mana, ularning qarshisidan yana o'rmon chiqibdi. Erta qaytgan qushlar sayrashar, daraxtlar yashil kurtaklar bilan qoplangan ekan. O'rmon ichidan bu yo'lovchilar qarshisiga ajoyib ot minib olgan, boshiga och qizil shapkacha kiyib, beliga to'pponcha taqib olgan yoshgina qiz chiqib kelibdi.

Gerda darrov otni ham — bu ot hu bir paytlar oltin karetaga qo'shilgan ot ekan-da — qizni ham tanibdi. Bu o'sha kichkina qaroqchi qiz ekan.

Qiz ham Gerdani tanibdi. Shunaqangi xursandchilik bo'lib ketibdiki!

—Seni qara-yu, daydi! — debdi kichkina qaroqchi qiz Kayga. — Shuni bilmochimanki, seni deb dunyoning narigi chekkasigacha borishlariga arziysanmi o'zi yo yo'qmi?

Biroq Gerda uning yuzlaridan silagancha o'ziga qaratibdi va shahzoda bilan malika haqida so'rabdi.

-Ular begona yurtlarga ketib qolishdi, — deb javob beribdi kichkina qaroqchi qiz.

-Qarg'alar-chi? — deb so'rabdi Gerda.

-O'rmon qarg'asi vafot etdi; xonaki qarg'a tul qoldi, peshanasidagini ko'rib, qora patli oyoqlarini hakkalatib yuribdi. Qo'y, bularning hammasi bekorchi gaplar, yaxshisi, sen o'z boshingdan o'tganlarni, manavi bolakayni qanday topganingni so'zlab ber.

4-Qor malikasi

Gerda va Kay unga barcha voqealarni so'zlab berishibdi.

— Mana, ertak ham nihoyasiga yetdi! — deya kichkina qaroqchi qiz ularning qo'lini siqibdi va qachondir shaharga yo'li tushsa, ularnikida mehmon bo'lishini aytibdi.

Shundan so'ng u o'z yo'lidan, Kay va Gerda ham o'z yo'llaridan ketishibdi.

Ular ilgarilab borar ekanlar, yo'llariga bahor gullari ochilibdi, yam-yashil maysalar yastanibdi. Mana, nihoyat, qo'ng'iroq sadolari eshilibdi, ular bu o'z qarddon shaharlarining qo'ng'iroqlari ekanini tanib qolibdilar. Ular o'sha tanish zinapoyadan ko'tarilib xonaga kiribdilar, unda hamma narsa avvalgidek: soat «chiq-chiq» qilib sayrab turar. uning millari esa raqamlar bo'ylab og'ib borar ekan. Biroq pastakkina eshikdan kirayotganlarida o'zlarining balog'atga yetganliklarini sezib qolishibdi. Gullab yotgan atirgul shoxlari tom osha ochiq derazadan mo'ralabdi, ularning bolalikdagi kursichalari hamon shu butalar ostida turar ekan.

Kay va Gerda, har biri o'z kursisiga o'tirganicha, bir-birining qo'lidan tutibdi va Qor malikasining sovuq, bo'm-bo'sh, haybatli saroyi og'ir tush kabi eslaridan chiqib ketibdi.

Ulg'ayib qolgan, biroq yuragi va ruhi bolaligicha qolgan bu ikki yosh shundoq yonma-yon o'tirar, hovlida esa yoz, iliq, to'kin-sochin yoz hukm surmoqda ekan.